



LEGAL AND ADMINISTRATIVE FOUNDATIONS OF POLITICAL PARTY ACTIVITIES IN IRAN

Murodjon Koraboyev

Senior Lecturer, Oriental University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Iran, political parties, party system, legal foundations, administrative governance, Constitutional Revolution, Pahlavi era, Islamic Revolution, Article 10 Commission, political pluralism, political institutions, party legislation.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: This study examines the legal and administrative foundations of political party activity in Iran from the Constitutional Revolution of the early twentieth century to the contemporary period. The research analyzes the evolution of constitutional provisions, legislative acts, state institutions, and administrative control mechanisms that have shaped the development of Iran's party system. Particular attention is devoted to the legal basis of political pluralism during the Qajar era, the establishment of centralized state control over political parties under the Pahlavi monarchy, and the transformation of party politics within the constitutional and ideological framework of the Islamic Republic after the 1979 Revolution. The article also investigates the legal significance of the 1981 and 2016 Party Laws, the authority of the Article 10 Commission, procedures for party registration and financing, and the mechanisms of state supervision over political organizations. The findings demonstrate that the Iranian party system has developed as a distinctive institutional model in which political participation and competition are regulated through a combination of constitutional principles, administrative oversight, national security considerations, and the ideological foundations of the Islamic Republic.

ERON SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING HUQUQIY VA MA'MURIY ASOSLARI

Murodjon Koraboyev*Oriental universitetining katta o'qituvchisi
Tashkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Eron, siyosiy partiyalar, partiyaviy tizim, huquqiy asoslar, ma'muriy boshqaruv, Konstitutsiyaviy inqilob, Pahlaviylar davri, Islom inqilobi, 10-modda komissiyasi, siyosiy plyuralizm, siyosiy institutlar, partiyaviy qonunchilik.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Eron siyosiy partiyalari faoliyatining huquqiy va ma'muriy asoslari XX asr boshlaridagi Konstitutsiyaviy inqilob davridan boshlab hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qilingan. Tadqiqotda partiyaviy tizimning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan konstitutsiyaviy normalar, qonunchilik hujjatlari, davlat boshqaruvi institutlari hamda ma'muriy nazorat mexanizmlarining evolyutsiyasi o'rganilgan. Xususan, Qojarlar davridagi partiyaviy plyuralizmning huquqiy asoslari, Pahlaviylar davrida siyosiy partiyalar faoliyatining markazlashgan davlat nazorati ostiga olinishi, 1979-yilgi Islom inqilobidan keyin partiyalar faoliyatining yangi konstitutsiyaviy-huquqiy paradigma doirasida qayta tashkil etilishi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, 1981 va 2016-yillardagi partiyalar to'g'risidagi qonunlarning mazmuni, "10-modda komissiyasi"ning vakolatlari, partiyalarni ro'yxatga olish, moliyalashtirish va nazorat qilish tartiblari hamda siyosiy raqobatning huquqiy chegaralari yoritilgan. Tadqiqot natijasida Eron partiyaviy tizimining huquqiy rivojlanishi klassik liberal-demokratik modeldan farqli ravishda davlat barqarorligi, milliy xavfsizlik va islomiy boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashgan o'ziga xos institutsional model sifatida shakllangani asoslab berilgan.

**ПРАВОВЫЕ И АДМИНИСТРАТИВНЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ ИРАНА**

Муроджон Корабоев*Старший преподаватель Университета Oriental
Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Иран, политические партии, партийная система, правовые основы, административное управление, Конституционная революция, эпоха Пехлеви, Исламская революция,

Аннотация: В данной статье исследуются правовые и административные основы деятельности политических партий в Иране в контексте их исторического развития от Конституционной революции

Комиссия по статье 10, политический плюрализм, политические институты, партийное законодательство.

начала XX века до современного периода. Особое внимание уделено эволюции конституционных норм, законодательных актов, государственных институтов и механизмов административного контроля, определявших функционирование партийной системы страны. Рассматриваются правовые основы политического плюрализма в эпоху Каджаров, процессы усиления государственного контроля над партийной деятельностью в период правления Пехлеви, а также формирование новой конституционно-правовой модели партийной политики после Исламской революции 1979 года. Анализируются положения законов о политических партиях 1981 и 2016 годов, полномочия Комиссии по статье 10, порядок регистрации и финансирования партий, а также механизмы государственного надзора за их деятельностью. В результате исследования обосновывается вывод о том, что партийная система Ирана сформировалась как особая институциональная модель, сочетающая политическую конкуренцию с принципами государственного контроля, национальной безопасности и идеологическими основами Исламской Республики.

Kirish. Eron siyosiy tarixida partiyalarning huquqiy subyekt sifatida maydonga chiqishi 1905–1911-yillardagi Konstitutsiyaviy inqilob (مشروطه) bilan bevosita bog‘liq. Ungacha bo‘lgan davrda Eron huquqiy tizimi mutlaq monarxiya va shariat normalariga tayangan bo‘lib, unda siyosiy uyushmalar yoki partiyalarning qonuniy maqomi mutlaqo mavjud emas edi. 1906-yilda imzolangan Konstitutsiya va 1907-yilgi unga ilova qilingan qo‘shimchalar Eron siyosiy tizimida partiyaviylikning huquqiy asosini yaratdi. 1907-yilgi Konstitutsiyaga qo‘shimchaning 21-moddasi Eron partiyashunosligida fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, unda “jamiyatlar va uyushmalar butun mamlakat bo‘ylab tuzilishi mumkin, basharti ular tartibsizlikka sabab bo‘lmasa va dindan qaytishga da’vat etmasa” deb belgilangan[20, 56-b]. Mazkur me’yoriy cheklov shuni ko‘rsatadiki, Eronda siyosiy erkinlik tushunchasi dastlabki bosqichdanoq milliy-diniy qadriyatlar va jamoat tartibi qoidalari orqali qonuniylashtirilgan.

Ma’muriy jihatdan bu davrda partiyalarni ro‘yxatga olishning markazlashgan tizimi mavjud emas edi. Partiyalar ko‘proq “anjumanlar” shaklida o‘z-o‘zini e’lon qilish tartibida faoliyat boshlar edi. Tahlillarga ko‘ra, bu davrdagi ma’muriy bo‘shliq partiyalarning davlat

nazoratidan xoli bo'lishini ta'minlagan bo'lsa-da, ularning huquqiy himoyasini zaiflashtirgan. 1906 va 1909-yillardagi "Saylov qonunlari" partiyalarning ma'muriy jihatdan parlament tarkibida shakllanishiga turtki berdi. Dastlabki saylovlar tabaqaviy xarakterda bo'lib, partiyaviy dasturlarni talab qilmagan bo'lsa-da, Ikkinchi Majlis davriga kelib, partiyalar parlament ichidagi fraksiyalar sifatida huquqiy tan olindi[3, 134-b]. Siyosiy partiyalarning qonun chiqaruvchi organ tarkibida institutsional ko'rinish olishi Eron davlat boshqaruvida plyuralizmning huquqiy mexanizmlari ishga tushganidan dalolat beradi.

"Hezbe Demokrate Eron" misolida ko'radigan bo'lsak, mazkur partiya o'zining qat'iy nizomiga ega bo'lib, unda ma'muriy markazlashuv, a'zolik badallari va mintaqaviy bo'limlar faoliyati huquqiy tartibga solingan edi. "Ejtemaiyune Etedaliyun" partiyasi esa ulamolarning qo'llab-quvvatlashiga tayanib, o'zining g'oyaviy dasturida islomiy an'analar va parlament plyuralizmi o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intilgan[15, 89-b]. Bu holat Eron partiyalarining nafaqat siyosiy tashkilot, balki jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini huquqiy maydonda muvozanatlashtiruvchi institut sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, bu davrning o'ziga xos ma'muriy xususiyati shundaki, partiyalar nafaqat poytaxt Tehronda, balki viloyatlarda ham o'zlarining mahalliy kengashlari orqali boshqaruv funksiyalarini qisman o'z zimmasiga olgan. Partiyalar faoliyatining ma'muriy asoslaridan biri – 1908-yilda qabul qilingan "Matbuot to'g'risidagi qonun" edi. Ushbu qonun partiyalarga o'zining rasmiy nashrlarini yuritish huquqini berdi[6, 212-b]. Siyosiy partiyalar tomonidan rasmiy matbuot organlarining ta'sis etilishi ularning ommaviy-huquqiy subyekt sifatida jamiyat bilan kommunikatsiyasini qonuniy asosga qo'ydi.

Biroq, Qojarlar davrining oxiriga kelib, tashqi aralashuvlar natijasida ushbu huquqiy asoslar zaiflashdi. 1911-yildagi parlamentning tarqatib yuborilishi va keyingi harbiy tartibsizliklar partiyalarning ma'muriy faoliyatini to'xtatib qo'ydi. S. Aliev ta'kidlaganidek, Qojarlar davridagi partiyaviy plyuralizm kuchli markaziy hokimiyat yo'qligi sababli mavjud edi[13, 47-b]. Demak, Mashruta davridagi partiyaviylik huquqiy kafolatlangan barqaror tizimdan ko'ra, ko'proq inqilobiy o'zgarishlar bergan vaqtinchalik siyosiy imkoniyatlar mahsuli bo'lgan deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Qojarlar davrida partiyalarning huquqiy asosi liberal konstitutsiyaviylik va islomiy normativizm o'rtasidagi ziddiyatli murosada shakllandi. Bu davr keyingi Pahlaviylar davridagi qat'iy ma'muriy cheklovlar uchun o'ziga xos "demokratik pretsedent" bo'lib xizmat qildi.

1925-yilda Pahlaviylar sulolasining o'rnatilishi Eronning huquqiy va ma'muriy maydonida tub burilish yasadi. Rizo shoh tomonidan ilgari surilgan "modernizatsiya va milliy birlik" g'oyasi

siyosiy maydonni tartibsiz partiyaviy kurashlardan tozalashni nazarda tutar edi. Natijada, Qojarlar davridagi nisbiy huquqiy liberalizm o'rnini qat'iy davlat nazorati va ma'muriy unitarizm egallagan.

Rizo shoh davridagi partiyaviy faoliyatni cheklovchi eng asosiy huquqiy hujjat 1931-yil iyun oyida qabul qilingan "Kollektiv xavfsizlik va antikommunistik faoliyat to'g'risida"gi qonun bo'ldi. Ushbu qonun rasman "kommunistik mafkuraga qarshi" qaratilgan bo'lsa-da, amalda barcha mustaqil siyosiy uyushmalarni taqiqlash uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi[8, 114-b]. S. Kronin ta'kidlaganidek, ushbu huquqiy mexanizm davlat xavfsizligini ta'minlash bahonasida jamiyatning siyosiy o'zini-o'zi tashkil etish huquqini cheklashga qaratilgan edi. Mazkur qonuniy o'zgarish Eron huquqiy tizimida plyuralizm tamoyilidan "davlat xavfsizligi ustuvorligi" tamoyiliga o'tishni rasmiylashtirganini ko'rsatadi.

Qonunning 1-moddasiga ko'ra, "milliy manfaatlar va konstitutsiyaviy monarxiya asoslariga zid bo'lgan har qanday uyushma tuzish" jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilab qo'yildi. Ushbu qonundagi "milliy manfaat" tushunchasining noaniqligi ijro etuvchi hokimiyatga, xususan, politsiyaga har qanday muxolif harakatni sud qarorisiz ma'muriy yo'l bilan tarqatib yuborish uchun cheksiz vakolatlar bergan. H. Katuzian tahlillariga ko'ra, bu holat mamlakatda "ma'muriy diktatura" elementlarining shakllanishiga va siyosiy institutlarning byurokratik apparatga bo'ysundirilishiga olib kelgan[10, 162-b]. Bu esa siyosiy partiyalarning mustaqil huquqiy subyekt sifatidagi tabiatini yo'qotib, ularni shunchaki rejimning mafkuraviy qo'shimchasiga aylantirganidan dalolat beradi.

Rizo shoh davrida partiyalarni ro'yxatga olish yoki ularning faoliyatini nazorat qilish Ichki ishlar vazirligidan ko'ra ko'proq politsiya boshqarmasining maxsus bo'limlari zimmasiga yuklatilgan edi. Har qanday yig'ilish yoki jamoat tadbiri uchun politsiyadan ruxsat olish shart qilib qo'yilishi partiyaviy hayotning huquqiy maydondan ma'muriy-nazorat maydoniga ko'chganini anglatardi. 1920-yillarning o'rtalarida mavjud bo'lgan "Hezbe Tajjodod" va "Hezbe Irane Novin" dastlab shoh islohotlarini qo'llab-quvvatlash uchun ma'muriy qurol sifatida foydalanildi. Biroq, 1930-yillarga kelib, shoh hatto o'ziga sodiq bo'lgan ushbu "sun'iy" partiyalarning faoliyatini ham to'xtatib qo'ydi.

Edvard Abrahamian yozganidek, Rizo shoh partiyalarni jamiyat va davlat o'rtasidagi "vositachi" emas, balki "bo'luvchi" omil deb hisoblagan[1, 205-b]. Shuning uchun, u ma'muriy resurslarni partiyalarni rivojlantirishga emas, balki ularni tugatib, o'rniga to'g'ridan-to'g'ri harbiy-byurokratik boshqaruvni o'rnatishga yo'naltirdi. Pahlaviylarning birinchi bosqichida partiyalarning huquqiy asosi institutsional inqirozga uchrab, davlat boshqaruvi butunlay monarx irodasi va kuch ishlatar tizimlar nazoratiga o'tgan deb hisoblash mumkin.

Mazkur davrda Majlis saqlab qolingani bo'lsa-da, undagi partiyaviy fraksiyalar faoliyati huquqiy jihatdan "tozalov" qilindi. Saylov nizomlari o'zgartirilib, nomzodlarni tanlash jarayoni to'liq armiya va politsiya nazoratiga o'tkazildi. 1930-yillardagi parlament saylovlarida partiyaviy raqobat mutlaqo mavjud emas edi; nomzodlar ro'yxati markaziy ma'muriyat tomonidan oldindan tasdiqlanar edi[5, 98-b]. F. Azimiy tahlillariga ko'ra, bu jarayon parlamentarizm institutining huquqiy degradatsiyasiga va qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijroiya apparati qo'shimchasiga aylanishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy plyuralizmning nafaqat amalda, balki huquqiy ong darajasida ham inqirozga uchraganidan dalolat beradi.

Haqiqatan ham, bu davrda partiyaviy huquq o'rnini "etatizm" – davlat markazchiligi egalladi. Rus olimi N. Mamedova ta'kidlaganidek, Rizo shoh davrida partiyalarning ma'muriy o'limi – bu eronliklarning siyosiy ongini monarxiya atrofida majburiy birlashtirish strategiyasining natijasi edi[15, 122-b]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1925–1941-yillardagi ushbu huquqiy turg'unlik 1941-yilda Rizo shoh taxtdan ketganidan so'ng, mamlakatda "partiyaviy portlash" – ko'plab partiyalarning qisqa vaqtda paydo bo'lishi yuz berishiga sabab bo'lgan asosiy omildir. Mazkur holat uzoq vaqt davomida sun'iy ravishda ushlab turilgan siyosiy irodaning huquqiy bo'shliq yuzaga kelishi bilan shiddatli transformatsiyaga uchraganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Rizo shoh davri Eronda partiyaviy tizimning huquqiy inqirozi va ma'muriy repressiyasi davri sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davrda yaratilgan repressiv qonunchilik bazasi keyinchalik Muhammad Rizo shoh davrida ham ma'lum darajada saqlanib qoldi.

Muhammad Rizo shoh davrini (1941–1979) ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. 1941–1953-yillar Eron tarixida partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari monarxiya irodasidan parlament irodasiga o'tgan davr sifatida tavsiflanadi. Bu davrda partiyalar shunchaki mavjud bo'lib qolmay, balki davlatning strategik qarorlariga, jumladan, neftni milliyalashtirish jarayoniga bevosita huquqiy ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'tarildi. Rizo shoh davridagi repressiv apparatning zaiflashishi natijasida, 1906-yilgi Konstitutsiyada belgilangan erkinliklar amalda ishlay boshladi. 1940-yillarning boshida qabul qilingan yangi "Matbuot to'g'risidagi qonun" partiyalarga o'z mafkuraviy platformalarini cheklovsiz e'lon qilish huquqini berdi. Ma'muriy jihatdan partiyalarni ro'yxatga olish jarayoni soddalashtirildi va Ichki ishlar vazirligi faqat xabardor qilish tartibida litsenziyalarni bera boshladi[9, 182-b]. H. Katuzian fikricha, ushbu huquqiy liberalizm davri Eron jamiyatida demokratik institutlarning qayta tiklanishi uchun qisqa, ammo mazmunli imkoniyat yaratgan. Bu esa davlat boshqaruvida "huquqiy plyuralizm" modelining vaqtinchalik g'alabasini anglatar edi.

“Hezbe Tude” 1941-yilda tashkil etilgan ushbu partiya Eronda birinchi bo‘lib zamonaviy, iyerarxik ma‘muriy tuzilmani joriy etdi. Uning nizomi va tashkiliy tuzilishi intizomli “ommaviy partiya” modeliga asoslangan bo‘lib, bu Eron huquqiy makonida yangilik edi[2, 76-b]. E. Abrahamian ta’kidlashicha, “Tude”ning huquqiy maydondagi faolligi davlatni partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi yangi ma‘muriy mexanizmlarni o‘ylab topishga majbur qildi. Bu esa Eron partiyaviyligida institutsional intizomning shakllanishiga va partiyalarning davlat bilan muloqotining yangi bosqichga chiqishiga turtki bo‘ldi.

1949-yilda Muhammad Musaddiq boshchiligidagi tuzilgan “Milliy jabha” klassik partiyadan ko‘ra ko‘proq turli siyosiy guruhlar, kasaba uyushmalari va diniy harakatlarning huquqiy koalitsiyasi sifatida namoyon bo‘ldi. Musaddiqning asosiy maqsadi – Konstitutsiyani himoya qilish va shohning ijroiya hokimiyatiga aralashuvini huquqiy jihatdan cheklash edi. Ushbu koalitsion harakatning muvaffaqiyati shuni ko‘rsatadiki, o‘sha davrda Eronda siyosiy plyuralizm shunchaki g‘oyaviy kurash emas, balki davlat boshqaruvi shaklini qonuniy yo‘l bilan isloh qilish vositasiga aylangan edi.

1951-yilda Majlis tomonidan qabul qilingan “Neft sanoatini milliy lashtirish to‘g‘risida”gi qonun aynan “Milliy jabha” kabi partiyaviy blokning qonun chiqaruvchi hokimiyatdagi huquqiy g‘alabasi edi[7, 128-b]. Bu davrda partiya nafaqat saylovda qatnashuvchi subyekt, balki xalqaro huquqiy nizolarda, xususan, Gaaga sudidagi Britaniya-Eron mojarosida davlatning siyosiy irodasini shakllantiruvchi institut darajasiga ko‘tarildi. Musaddiq hukumati davrida 1952-yilda ilgari surilgan “Saylov qonuniga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi loyiha saylov jarayonini shoh va armiya nazoratidan chiqarib, fuqarolik institutlari nazoratiga berishni nazarda tutgan edi[13, 215-b]. S. Aliev tahlillariga ko‘ra, ushbu islohotlar Eronda barqaror demokratik partiya tizimini yaratish uchun huquqiy poydevor bo‘lishi mumkin edi, biroq tashqi aralashuv bu jarayonni to‘xtatib qo‘ydi. Bu holat Eron huquqiy tarixida “suverenitet plyuralizmi” modelining xalqaro geosiyosiy manfaatlar bilan to‘qnashuvi sifatida baholanishi lozim.

1953-yil avgust oyida amalga oshirilgan davlat to‘ntarishi “Demokratik tanaffus”ga huquqiy nuqta qo‘ydi. Musaddiq hukumati ag‘darilgach, mamlakatda harbiy holat e‘lon qilindi va barcha partiyalar faoliyati ma‘muriy yo‘l bilan to‘xtatildi. To‘ntarishdan so‘ng “Tude” partiyasi va “Milliy jabha”ning ko‘plab a‘zolari “1931-yilgi antikommunistik qonun” hamda yangi joriy etilgan harbiy tribunallar orqali sud qilindi[4, 310-b]. A. Ansari ta’kidlaganidek, bu davrda partiyaviy huquq o‘rnini “xavfsizlik doktrinasi” egalladi va siyosiy plyuralizm davlat barqarorligiga tahdid sifatida talqin etila boshlandi. Bu esa Eron huquqiy ongida partiyaviy faoliyatning “jinoyat” darajasiga tushirilishi va ma‘muriy jazo tizimining siyosiy vositaga aylanganini ko‘rsatadi.

1941–1953-yillar Eronda partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari plyuralizm va konstitutsionalizm tamoyillari asosida eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan davr bo‘ldi. Bu davrdagi huquqiy g‘alabalar va ma‘muriy tajribalar, garchi keyinchalik bostirilgan bo‘lsa-da, 1979-yilgi inqilobiy diskursning shakllanishida muhim g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qildi. Rus tadqiqotchisi S. Aliev yozganidek, Musaddiq davri Eronda “siyosiy partiya” tushunchasini elitar klubdan ommaviy harakat darajasiga olib chiqdi[13, 220-b]. Bu davrning huquqiy merosi Eron xalqining siyosiy subyektligini anglashida fundamental ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi.

1953-yildan keyingi davrda Eron siyosiy tizimida partiyalar faoliyati o‘zining mustaqil huquqiy maqomini yo‘qotib, monarxik hokimiyatning legitimligini ta‘minlovchi ma‘muriy vositaga aylandi. Ushbu bosqichda partiyaviy huquqning asosi plyuralizmga emas, balki “milliy barqarorlik” va “antikommunizm” doktrinalariga tayanib, barcha norasmiy siyosiy kuchlarni qonuniy maydondan tashqariga chiqardi.

1957-yilda Eron Davlat xavfsizlik va razvedka tashkiloti – SAVAK tuzilishi haqidagi qonunning qabul qilinishi partiyalar faoliyatining huquqiy asoslariga mutlaqo yangi ma‘muriy o‘lchov kiritdi. Ushbu qonuniy hujjat bilan SAVAK shunchaki maxfiy xizmat emas, balki siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish, ularning nizomlarini tekshirish va yig‘ilishlarini nazorat qiluvchi “yuqori ma‘muriy filtr”ga aylandi[12, 142-b]. M. Zonis ta‘kidlaganidek, partiyaviy faoliyatni litsenziyalash jarayoni Ichki ishlar vazirligi vakolatidan SAVAKning “siyosiy ishonchlilik” nazoratiga o‘tkazildi. Bu esa Eron huquqiy tarixida partiyaviy plyuralizmining ma‘muriy-politsiya nazorati bilan almashishini rasmiylashtirgan asosiy burilish nuqtasi bo‘ldi.

Ma‘muriy jihatdan bu davrda “ikki partiyali tizim” modeli sun‘iy ravishda joriy etildi. 1957-yilda shoh tashabbusi bilan “Melli” va “Mardum” partiyalarining tuzilishi erkin uyushish huquqi natijasi emas, balki davlatning ma‘muriy buyrug‘i asosida amalga oshirildi. Ushbu partiyalarni tartibga soluvchi huquqiy normalar ularning faoliyat doirasini faqat monarxni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklab qo‘ydi. J. Bill tahlillariga ko‘ra, bu tizim “fasadli plyuralizm”ni vujudga keltirib, qog‘ozda partiyalar erkinligi saqlansa-da, amalda barcha qarorlar shoh saroyi – Darborgah tomonidan qabul qilingan[7, 135-b]. Demak, bu davrdagi ma‘muriy asoslar partiyalarni jamiyat manfaatlarini ifoda etuvchi subyektdan, davlat byurokratiyasining bir qismiga aylantirishga yo‘naltirilgan edi.

1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshiga kelib, partiyaviy faoliyatning huquqiy maydoni yanada toraydi. 1975-yilda Muhammad Rizo shohning barcha partiyalarni tugatib, yagona “Rastoxiz” partiyasini tuzish haqidagi farmoni Eron huquqiy tizimida “unitar partiyaviylik” davrini boshlab berdi. Ushbu qaror 1906-yilgi Konstitutsiyaning siyosiy erkinliklar haqidagi moddalariga zid bo‘lsa-da, amalda “Hokimiyatning bo‘linmasligi” doktrinasi

orqali qonuniylashtirildi. H. Katuzian yozganidek, “Rastoxiz”ning tashkil etilishi bilan Eron huquqiy makonida “partiya” tushunchasi o‘rnini “davlat apparatiga majburiy a’zolik” tushunchasi egalladi[11, 189-b].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1953–1979-yillarda Eron siyosiy partiyalari faoliyatining huquqiy asosi ikki yo‘nalishda rivojlandi: birinchidan, mustaqil partiyalarni taqiqlashga qaratilgan repressiv qonunchilik; ikkinchidan, davlat tomonidan boshqariladigan sun’iy partiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi ma’muriy reglamentlar. Rus olimi S. Aliev ta’kidlaganidek, bu davrdagi huquqiy turg‘unlik va ma’muriy bosim jamiyatning siyosiy irodasini qonuniy maydondan yashirin maydonga ko‘chishiga sabab bo‘ldi[13, 312-b]. Xulosa qilib aytganda, Pahlaviylar davrining ikkinchi yarmidagi partiyaviy huquq va ma’muriy boshqaruv tizimi plyuralizmni yo‘q qilish orqali monarxiya barqarorligini saqlashga xizmat qildi, biroq bu huquqiy inqiroz oxir-oqibat 1979-yilgi inqilobiy portlashning huquqiy-siyosiy asoslaridan biriga aylandi.

1979-yilgi Islom inqilobi nafaqat siyosiy rejimni, balki partiyalar faoliyati yuritadigan huquqiy va me’yoriy paradigmani ham tubdan o‘zgartirdi. Yangi shakllangan tizimda partiyaviylik huquqi “G‘arbcha plyuralizm” modelidan voz kechib, “islomiy respublikachilik” doirasidagi o‘ziga xos ma’muriy qoliplarga kirdi. Inqilobdan keyingi dastlabki yillarda partiyaviy faoliyat ustidan ma’muriy nazorat mexanizmlari juda xaotik va qutblashgan xarakterga ega edi. Bu holatni huquqiy tartibga solish va tizimlashtirish maqsadida 1981-yil 31-avgustda “Siyosiy partiyalar, guruhlar, diniy va kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur hujjat Eron Islom Respublikasi tarixida partiyalar faoliyatini boshqarishning ilk va eng uzoq muddatli ma’muriy reglamenti bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur qonunning 10-moddasi bilan tashkil etilgan maxsus komissiya – Komisyone Maddeye 10 (کمیسیون ماده ۱۰) partiyalar faoliyatining huquqiy chegaralarini belgilash va ularni nazorat qilishning asosiy quroliga aylandi. Ushbu komissiya nafaqat rasmiy litsenziya berish, balki partiyalar faoliyatining milliy xavfsizlik va islomiy me’yorlarga muvofiqligini doimiy monitoring qilib borish bo‘yicha keng ma’muriy vakolatlarni o‘zida jamladi. G. Javad tahlillariga ko‘ra, 1981-yilgi qonun inqilobiy tizimning huquqiy institutlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish uchun o‘ziga xos “ma’muriy-huquqiy qalqon” vazifasini o‘tadi. Bu normativ o‘zgarish Eron huquqiy maydonida plyuralizm tamoyili to‘liq konstitutsiyaviy mafkura va davlat barqarorligi ustuvorligiga bo‘ysundirilganini ko‘rsatadi.

Eron partiyaviy qonunchiligidagi keyingi eng muhim burilish nuqtasi 2016-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi qonun hujjatlari bo‘ldi. Ushbu tahrir partiyalarning ichki tashkiliy va ma’muriy tuzilmasiga nisbatan miqdoriy hamda sifat talablarini keskin oshirdi. Xususan, yangi

normativ talablarga binoan, partiyaning “milliy miqyosda” qonuniy tan olinishi uchun u kamida mamlakat viloyatlarining uchdan bir qismida o‘zining rasmiy hududiy bo‘limlariga ega bo‘lishi majburiy shart qilib qo‘yildi. Ushbu huquqiy cheklov “ko‘cha partiyalari” yoki “kvartira partiyalari” deb ataluvchi, barqaror ijtimoiy-huquqiy bazaga ega bo‘lmagan mayda guruhlarining ma‘muriy maydondagi ta‘sirini tugatishga qaratilgan qat‘iy filtrlash mexanizmi bo‘lib xizmat qildi.

Siyosatshunos A. Sharifiy ta’kidlaganidek, 2016-yilgi qonunchilik islohoti Erondagi tarqoq partiyaviy muhitni “professional partiyaviy maydon”ga aylantirish va davlat nazoratini markazlashtirish bo‘yicha tashlangan strategik qadam edi [16, 117-b]. Mazkur islohot ma‘muriy jihatdan partiyalarni yiriklashtirish hamda ularning institutsional mas‘uliyatini oshirishga xizmat qilsa-da, boshqa tomondan kichik siyosiy-ijtimoiy oqimlarning qonuniy maydonda o‘z ovozigga ega bo‘lish imkoniyatini huquqiy jihatdan cheklab qo‘yganligini anglatadi.

2016-yilgi qonun Eronda partiya tushunchasiga nafaqat mafkuraviy, balki qat‘iy tashkiliy-huquqiy talablarni va ma‘muriy majburiyatlarni yukladi. Xususan, qonunning 2- va 6-moddalari doirasida partiyalarni tasniflash va ularning faoliyat miqyosini huquqiy baholash mezonlari aniq belgilab berildi. Ushbu qonunning 2-moddasida siyosiy partiya, assotsiatsiya va guruh tushunchalariga huquqiy ta’rif berilgan bo‘lsa, 6-moddada partiyalar ma‘muriy miqyosiga ko‘ra ikki darajaga: milliy va viloyat darajasidagi tashkilotlarga ajratildi [19, 35-b]. Milliy darajadagi partiya o‘z litsenziyasini saqlab qolishi uchun kamida 10 ta viloyatda o‘zining doimiy vakolatxonasini yuritishi va har bir hududiy bo‘limda kamida 20 nafar rasmiy a‘zo ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi huquqiy norma qilib qo‘yildi. Ushbu ma‘muriy chora “partiya – bu faqat poytaxt Tehrondagi elita klubi” degan tasavvurni qonuniy yo‘l bilan o‘zgartirib, siyosiy tuzilmalarni butun mamlakat miqyosida barqaror va qonuniy ma‘muriy iyerarxiyani shakllantirishga majbur etgan fundamental huquqiy mexanizm sifatida baholanishi lozim.

Siyosiy partiyalar faoliyatining subyektiv tarkibini shakllantirishda 2016-yilgi qonunning 9-moddasi alohida ma‘muriy-huquqiy ahamiyatga ega. Ushbu norma subyektlarning huquq layoqatini cheklash orqali siyosiy elitaning “institutsional tozaligi” ustidan davlat nazoratini o‘rnatadi. 9-modda talablariga binoan, quyidagi shaxslarga siyosiy partiya tuzish yoki uning rahbar organlariga saylanish huquqiy jihatdan qat‘iyan taqiqlanadi:

- SAVAK xodimlari va monarxiya (Pahlaviylar) davridagi yuqori martabali davlat amaldorlari;
- Sud qarori bilan ijtimoiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum etilgan shaxslar;
- Qurolli kuchlar, huquqni muhofaza qiluvchi va xavfsizlik organlarining amaldagi harbiy xizmatchilari.

A. Sharifiy huquqiy tahlillariga ko'ra, ushbu modda Eron inqilobiy huquq tizimining o'ziga xos "meritokratik va xavfsizlik filtra" hisoblanadi[17, 17-b]. Mazkur cheklovlarning me'yoriy mazmuni shuni ko'rsatadiki, Eron partiyaviy qonunchiligi nafaqat joriy siyosiy barqarorlikni ta'minlash, balki o'tmishdagi rejim elementlarining yoki kuch ishlatar tuzilmalarning siyosiy maydonga ma'muriy va huquqiy yo'llar bilan qayta integratsiyalashuvini to'sib qo'yishga qaratilgan profilaktik-huquqiy funksiyani bajaradi.

Siyosiy guruhlar faoliyatining iqtisodiy asoslarini ma'muriy tartibga solish qonunning 16-moddasi orqali amalga oshiriladi. Mazkur moddada partiyaviy mablag'larning shakllanish manbalari qat'iy chegaralangan bo'lib, qonuniy daromadlar iyerarxiyasiga quyidagilar kiritilgan:

- Partiya a'zolarining muntazam a'zolik badallari;
- Mahalliy jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriyalari (faqat Eron Islom Respublikasi fuqarolari tomonidan);
- Partiya mulkini boshqarishdan keladigan qonuniy daromadlar;
- Islomiy Kengash Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan davlat subsidiyalari.

Mazkur moddaning eng qat'iy huquqiy imperativi – xorijiy hukumatlar, xalqaro tashkilotlar yoki begona fuqarolardan har qanday shaklda moddiy va moliyaviy yordam olishning mutlaqo taqiqlanganligidir. Bunday holat aniqlangan taqdirda, mazkur qonunbuzarlik partiya litsenziyasini bekor qilishga sabab bo'ladigan eng og'ir ma'muriy-huquqiy jinoyat sifatida baholanadi[17, 18-b]. Bu rejim davlatning ichki partiyaviy subyektlar subsuverenitetini va milliy huquqiy makonni tashqi moliyaviy-siyosiy ta'sirlardan himoya qilish borasidagi qat'iy ma'muriy-huquqiy pozitsiyasini aks ettiradi.

Qonunning 18- va 19-moddalari "Partiyalar faoliyatini nazorat qiluvchi 10-modda komissiyasi"ning sanksiyaviy vakolatlarini va javobgarlikni qo'llash mexanizmlarini tartibga soladi. Komissiya tomonidan qo'llaniladigan huquqiy jazo choralari ma'muriy iyerarxiyasi quyidagicha belgilangan:

- Yo'l qo'yilgan qonunbuzarlikni bartaraf etish to'g'risida rasmiy yozma ogohlantirish berish;
- Partiya faoliyatini muayyan muddatga vaqtincha to'xtatib qo'yish;
- Partiya litsenziyasini butunlay bekor qilish to'g'risida sud organlariga yakuniy taqdimnoma kiritish.

Me'yoriy hujjatning 18-moddasida keltirilgan "milliy birlikka putur yetkazish" yoki "xorijiy razvedka tuzilmalari bilan aloqa o'rnatish" kabi huquqiy tushunchalar keng xarakterga ega bo'lib, huquqshunos olimlar o'rtasida jiddiy doktrinal bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Buning sababi shundaki, ushbu qoidalarda aniq huquqiy mezonlar belgilanmagan bo'lib, ular

mavjud sharoit va ma'muriy organlarning yondashuviga qarab turli xil talqin etilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy plyuralizm chegaralarini qonun yo'li bilan emas, balki ma'muriy-ijtimoiy nazorat institutlarining irodasi bilan belgilanishiga huquqiy poydevor yaratadi.

2016-yilgi qonunchilik islohotining muhim yangiliklaridan biri — ilk bor partiyalarning saylovoldi bloklari va koalitsiyalari faoliyatining huquqiy tartibga solinganligidir. Qonunning 21-moddasiga muvofiq, o'zaro ittifoq tuzgan partiyaviy tuzilmalar ushbu kelishuv to'g'risida Ichki ishlar vazirligini rasman xabardor qilishlari va ma'muriy javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan mas'ul shaxsni qonuniy ravishda belgilashlari shart[19, 35-b]. Ushbu norma koalitsion harakatlarni huquqiy qolipga solish orqali saylov jarayonlaridagi kutilmagan siyosiy o'zgarishlarning oldini olishga qaratilgan ma'muriy vositadir.

Xulosa qilib aytganda, Eron zamonaviy partiyaviy tizimining fundamental huquqiy o'ziga xosligi — barcha qonuniy subyektlarning "Viloyat-i faqih" – ya'ni rahbar boshqaruvi institutiga mutloq sodiqligi tamoyiliga tayanishidir. Konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan hech bir partiya ushbu tizimli doktrinaga qarshi chiqish yoki uni shubha ostiga olish huquqiga ega emas. A. A. Alixoniy tahlil qilganidek, ushbu huquqiy cheklov Eron makonida o'ziga xos "ichki raqobatli plyuralizm" modelini shakllantirdi[18, 205-b]. Ya'ni, partiyalar o'rtasidagi huquqiy va ma'muriy raqobat davlat boshqaruvi shakli yoki makrotizimni o'zgartirish uchun emas, balki faqat tizim ichidagi resurslarni taqsimlash hamda ikki asosiy ma'muriy-siyosiy oqim — islohotchilar va konservatorlar o'rtasidagi g'oyaviy yo'nalishlar balansi uchun kurashish doirasi bilan cheklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abrahamian, E. A History of Modern Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 205.
2. Abrahamian, E. Tortured Confessions: Prisons and Public Recantations in Modern Iran. – Berkeley: University of California Press, 1999. – P. 76.
3. Afary, J. The Iranian Constitutional Revolution, 1906-1911. – New York: Columbia University Press, 1996. – P. 134.
4. Ansari, A. M. Confronting Iran: The Failure of American Foreign Policy. – New York: Basic Books, 2006. – P. 310.
5. Azimiy, F. The Politics of Disruption: The Crisis of Democracy in Iran. – London: I.B. Tauris, 2008. – P. 98.
6. Bayat, M. Iran's First Revolution: Shi'ism and the Constitutional Revolution. – Oxford University Press, 1991. – P. 212.

7. Bill, J. A. The Eagle and the Lion: The Tragedy of American-Iranian Relations. – New Haven: Yale University Press, 1988. – P. 128-135.
8. Cronin, S. The Making of Modern Iran: State and Society under Riza Shah, 1921-1941. – London: Routledge, 2003. – P. 114.
9. Katouzian, H. Musaddiq and the Struggle for Power in Iran. – London: I.B. Tauris, 1990. – P. 182.
10. Katouzian, H. State and Society in Iran: The Eclipse of the Qajars and the Emergence of the Pahlavis. – London: I.B. Tauris, 2000. – P. 162.
11. Katouzian, H. The Political Economy of Modern Iran: Despotism and Pseudo-Modernism. – London: Macmillan, 1981. – P. 189.
12. Zonis, M. The Political Elite of Iran. – Princeton: Princeton University Press, 1971. – P. 142.
13. Алиев С. М. История Ирана. XX век. – М.: Ин-т востоковедения РАН, 2004. – С. 47.
14. Мамедова Н. М. Иран в период правления Рези-шаха (1925-1941). – М.: ИВ РАН, 2007. – С. 122.
15. اتحاديه، منصوره. پيدائش و تحول احزاب سياسي مشروطيت. – تهران: نشر تاريخ، ۱۳۶۱. – ص. ۸۹.
16. شريفی، احمد. تحول نظام حزبی در ايران. – تهران: انتشارات دانشگاه تهران، ۱۳۹۸. – ص. ۱۱۸.
17. شريفی، احمد. شرح قانون جديد احزاب ايران. – تهران: نشر میزان، ۱۳۹۷. – ص. ۱۸.
18. عليخانی، علی اکبر. سياست و حکومت در ايران. – تهران: مؤسسه تحقيقات، ۱۳۹۴. – ص. ۲۰۵.
19. قانون احزاب و جمعيت ها. – تهران: روابط عمومی وزارت کشور، ۱۳۹۵. – ص. ۱۲-۳۵.
20. کسروی، احمد. تاريخ مشروطه ايران. – تهران: انتشارات اميرکبير، ۱۳۸۲. – ص. ۵۶.